

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida**  
**“Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi bo‘yicha**  
**2023-yilning yakuni yuzasidan**  
**TAHLILIIY MA’LUMOT**

**Davlat dasturining uchinchi ustuvor yo‘nalishi - milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o’sish sur’atlarini ta’minalash** bo‘yicha ham tizimli chora-tadbirlar amalgalashmoqda.

Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minalash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarish xajmini 1,4 barobar oshirish (**22-maqsad**) maqsadida Navoiydagagi Pistali konida 4 million tonna oltin rudasini qayta ishlash majmuasining qurilishini yakunlash (Respublika davlat dasturi 44-band) vazifasi belgilandi.

Dastur ijrosini ta’minalash maqsadida kombinat tomonidan chora-tadbirlar dasturi hamda nazorat rejasi ishlab chiqilib, tasdiqlandi (10.10.2023y.), Dasturda “NKMK” AJ berilgan topshiriq doirasida:

Dastur doirasida joriy yil **yanvar-dekabr** oylarida:

- “NKMK” AJ 6-GMZ uchun kon texnikalari bosqichma-bosqich yetkazib berildi, shuningdek 6-GMZ to‘liq quvvatda ishga tushirildi;
- Nimstansiyada quvvati 40 MVA bo‘lgan ikki dona transformatorlar o‘rnatildi, kuch elektr qurilmalari qurilish maydoniga keltirildi va to‘liq ishga tushirildi;
- Dehibaland qo‘rg‘onidan – “Pistali” konigacha 57 km uzunligidagi 220kV kuchlanishli havo elektr uzatish tarmog‘i to‘liq qurib ishga tusurildi.
- “Ximiya” TES-PSdan – Dehibaland qo‘rg‘onigacha 45,0 km uzulikdagi 220kV kuchlanishli havo elektr uzatish tarmog‘i to‘liq qurib ishga tushirildi;
- “Balpantog” va “Tomdibuloq” konlari negizida qazib olish karerini qurish to‘liq qurib ishga tusurildi;
- “Turbay” konlarini o‘zlashtirish uchun qazib olish va qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish to‘liq qurib ishga tusurildi.

Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni kupaytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish (**22-maqsad**) maqsadida Iqtisodiyotni, shu jumladan sanoatning yetakchi tarmoqlarini yanada liberalallashtirish xamda transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish (Respublika Davlat dasturining 79-band) vazifasi belgilandi.

Dastur doirasida joriy yil **yanvar-dekabr** oylarida:

2023-2026-yillarda ustav kapitalida davlat ulushi mavjud transformatsiya qilinadigan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga ESG (Environment, Social, Governance)ni joriy etish, bunda atrof muhit, ijtimoiy omillar va korporativ boshqaruv omillari (ESG omillari), shuningdek, barqaror rivojlanish masalalari bilan bog‘lik omillarni hisobga olish masalalarini jamiyatlar boshqaruv organlarida ko‘rib chiqilishini tashkillashtirish va tavsiyalar ishlab chiqish. Bunda, xalqaro moliya institutlarini jalb qilgan holda quyidagi korxonalarda ESGni joriy etish

ishlari amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2023-yilda quyidagi vazifalar amalga oshirildi va bajarilishi rejalashtirilgan:

**Bajarildi:**

**Oltin qazib olishda mas'uliyatli yondashuv tamoyillarini va siyanidlarni boshqarish Xalqaro kodeksini amalga oshirish yuznalishida:**

- “NKMK” AJ faoliyatini (RGMPs, ICMC) xalqaro tamoyillarga muvofiqlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning yo'l xaritasini shakllantirish bo'yicha ishlarning birinchi bosqichi yakunlandi. Birinchi bosqich yakunlari bo'yicha Hisobot tayyorlandi;

- “Yo'l xaritasi”ni shakllantirish bo'yicha birinchi bosqich natijalari xalqaro kreditor banklari sindikati tomonidan kredit shartnomasi shartlaridan biri bajarilishi sifatida qabul qilindi;

- “NKMK” AJ faoliyatini (RGMPs, ICMC) xalqaro tamoyillarga muvofiqlashtirish bo'yicha yo'l xaritasini shakllantirishning ikkinchi bosqichi bo'yicha ishlarni bajarilmoqda;;

- 2023-yilning 2- va 3-choraklari davomida yakuniy audit hisobotini tuzish va yo'l xaritalarini ishlab chiqish bo'yicha ishlarni amalga oshirildi.

- Bugungi kunda “NKMK” AJ mutaxassislari tomonidan BCG xalqaro konsalting kompaniyasi ekspertlarini jalb qilgan holda audit natijalarini tahlil qilish va kelishish, shuningdek, ESG dasturlarini detallashtirish ishlarni amalga oshirmoqda.

Kombinatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan dastur va loyihalarni tanlashda mintaqaviy kontekstni, tog'-kon va oltin qazib olish sanoatidagi xalqaro tendensiyalarni va iqlim o'zgarishi inobatga olinadi. Oltin qazib olishga mas'uliyat bilan yondashish tamoyillari eng yaxshi xalqaro amaliyot va standartlar talablarini birlashtiradi, shuningdek, oltin qazib olish sanoatini tartibga soluvchi xalqaro organ-xalqaro Oltin Kengashining rasmiy talabidir. Ularni amalga oshirish ESG tamoyillari va ilg'or xalqaro amaliyotlarga to'liq muvofiqligini ta'minlaydi.

**Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi yo'nalishida:**

- Ish joylari xavfsizlik qoidalariiga muvofiqligi uchun akkreditatsiyadan o'tkaziladi va tegishli nazorat varaqalari to'ldiriladi.

- “Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik” yo'nalishida avtomatlashtirilgan kompyuter boshqaruv tizimiga ega yangi o'quv tizimi joriy etildi.

- MH va XT va ishlab chiqarish faoliyati sohasidagi motivatsiya tizimi to'g'risidagi Nizom joriy etildi.

- Mehnat muhofazasi bo'yicha korporativ portal ishlab chiqildi va foydalanishga topshirildi.

- Ishlab chiqarish bo'linmalarida muntazam tekshiruvlarni tashkil etish va o'tkazish tizimi yangilandi.

**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslardan oqilona foydalanish yo'nalishida:**

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kon-metallurgiya sanoati sohasida ekologik talablarni va atrof muhit muhofazasi me’yorlarini xalqaro standartlar asosida belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida “NKMK” AJda atrof-muhitni muhofaza qilishning uzoq muddatli strategiyasi ishlab chiqildi.

- “NKMK” Ajning “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan suv resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanishni yana-da takomillashtirish dasturi” qabul qilindi.

- “NKMK” AJning 2022-2024-yillarga mo‘ljallangan yoqilg‘i-energetika resurslarini tejash rejasি qabul qilindi.

### **Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlарини ko‘rib chiqish yo‘nalishida:**

- 2023-yil 9-avgust kuni Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i Shavqiddin Idiev ishtirokida “NKMK” AJda 2023-yilning birinchi yarmida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar tahliliga bag‘ishlangan navbatdagi brifing o‘tkazildi.

### **Korruptsiyaga qarshi kurash yo‘nalishida:**

Navoiy mashinasozlik zavodi ishchilarini ishtirokida seminar bo‘lib o‘tdi. Tadbirda Navoiy viloyati maxsus prokurori o‘rnbosari B.Ahmedov va “NKMK” AJ Komplayens xizmati xodimi Sh.Shuhratovlarning ma’ruzalari tinglandi. Kompaniya xodimlari Korruptsiyaga qarshi kurash siyosati, Xodimlarning axloq kodeksi, Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi nizom, Korruptsiyaga oid huquqbazarliklar to‘g‘risida xabar bergan xodimlarni mukofotlash tartibi, “NKMK” AJ pudratchi tashkilotlarini tekshirish bo‘yicha yo‘riqnomalar bilan tanishtirildi.

### **Hisobot va axborotni oshkor qilish yo‘nalishida:**

- KPMG konsalting kompaniyasi ko‘magida “NKMK” AJning 2022-yil uchun barqaror rivojlanishi to‘g‘risida hisobot ishlab chiqilmoqda.

Sentyabr oyida hisobotning birinchi loyihasi tayyorlandi, hisobot matnini to‘ldirish va ma’lumotlarni yig‘ish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

### **Rejalashtirilgan:**

- Kombinatda BCG konsalting kompaniyasining xalqaro ekspertlari ko‘magida barqaror rivojlanish maqsadlarini belgilash ustida ishlamoqda.